

**BESHIMOV MAQSUD KOMILOVICH**

Teacher of Bukhara State University

*Published under peer review:*

*Doctor of Science in History, Associate Professor*

**Farrukh Temirov,**

*Uzbekistan*

*Received 4<sup>th</sup> May 2023, Accepted 11<sup>th</sup> May 2023, Online 18<sup>th</sup> May 2023*

### **MIRZA ABDULVAHID MUNZIM - BUKHARA JADIDIZM IS ONE OF THE ACTIVISTS OF THE MOVEMENT**

**Abstract.** The article tells about the activities of Mirza Abdulvahid Munzim, one of the representatives of the Bukhara Jadid movement, information about the organization of Jadidism, their activities and creativity, the first new methodological schools in Bukhara. The article also talks about sending Bukhara youth to study abroad and the role of Munzim in this.

**Key words:** Munzim, Abdulvahid Burkhanzoda, Bukhara, Sharifjon Makhdum - Sadr Ziya, Sadriiddin Ainiy, "Darvozai Sallakhhana", "Tarbiyai atfol", "Bukharai Sharif", "Yosh Bukharolikler", Faizulla Khojayev, A. Fitrat, Germany, Dushanbe, Gulag

### **МИРЗА АБДУЛВАХИД МУНЗИМ - БУХАРСКИЙ ДЖАДИДИК ЯВЛЯЕТСЯ ОДНИМ ИЗ АКТИВИСТОВ ДВИЖЕНИЯ**

**Аннотация.** В статье рассказывается о деятельности Мирзы Абдулвахида Мунзима, одного из представителей бухарского джадидистского движения, сведения об организации джадидизма, их деятельности и творчестве, первых новометодических школах в Бухаре. В статье также говорится об отправке бухарской молодежи на обучение за границу и роли в этом Мунзима.

**Ключевые слова:** Мунзим, Абдулвахид Бурханзода, Бухара, Шарифжон Махдум-Садр Зия, Садриддин Айний, «Дарвозай Саллаххана», «Тарбияи атфол», «Бухарай Шариф», «Йош Бухароликлер», Файзулла Ходжаев, А. Фитрат, Германия, Душанбе, ГУЛАГ.

### **MIRZO ABDULVOHID MUNZIM – BUXORO JADIDCHILIK HARAKATI FAOLLARIDAN BIRIDIR**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Buxoro jadidchilik harakatining namoyondalaridan biri bo’lgan Mirzo Abdulvohid Munzim faoliyati to’g’risida bo’lib, jadidchilikning tashkil etilishi, ularning faoliyati va ijodi, Buxorodagi birinchi yangi usul maktablari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada buxorolik yoshlarning xorijga o’qishga yuborilganligi va Munzimning undagi roli to’g’rida so’z boradi.

**Kalit so'zlar:** Munzim, Abdulvohid Burxonzoda, Buxoro, Sharifjon Maxdum – Sadr Ziyo, Sadreddin Ayniy, "Darvozai Sallohxona", "Tarbiyai atfol", "Buxoroi sharif", "Yosh buxoroliklar", Fayzulla Xo'jayev, A.Fitrat, Germaniya, Dushanbe, GULAG

### **Kirish (Introduction)**

Hozirgi kunda jahoning ilmiy tadqiqot markazlarida turkistonlik mutafakkir allomalarining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida musulmon mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayoti, jadidchilik harakatining vujudga kelishi hamda jadid namoyandalarining ma'rifatparvarlik, yangi darslik-o'quv qo'llanmalar yaratish va nashr ettirish, kutubxonalar tashkil etish va mahalliy xalqni savodxon qilishni harakat qilgan milliy taraqqiyparvar ota-bobolarimizning o'rnak bo'luvchi ijtimoiy-madaniy faoliyatlarini o'rganilmoqda.

XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jixatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan muslamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan. Ana shunday o'g'ir sharoitda tarix sahnasiga jadidlar chiqib mamalakatni, millatni jaholat botqog'idan chiqarishga harakat qiladi. Shunday ma'rifatparvar jadidlardan biri - Buxoro jadidchilik harakatining yuksalishida katta hissa qo'shgan va birinchilar qatorida yangi usuldagagi maktabni ochgan Munzim (Abdulvohid Burxonzoda)dir.

### **Mavzuga Oid Adabiyotlarning Tahlili (Literature Review)**

*Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan: 1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish. 2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish. 3. Turli ma'rify jamiyatlar tuzish xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish. Shu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulkhamid Cho'lpon va boshqa ziyorilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi.*

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik va ma'rifatparvarlik harakati, uning mashhur namoyandalari faoliyati, taraqqiyparvarlik g'oyalari, yangi usul maktablari, mahalliy matbuotchilikning shakllanishi, dolzarb bo'lib kelganligi uchun qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yaratilgan mahalliy manbalar va matbuot materiallari
2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar.
4. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

### **Tadqiqot Metodologiyasi (Research Methodology)**

Mazkur masalani yoritishda tarixiylik, ilmiy-ijodiy qiyoslash, tarixiy tanqidiylik metodlaridan o'rinali foydalanildi. Shuningdek, mantiqiylik va tarixiy uzlik usullariga ham rioiya qilingan.

**Tahlil va Natijalar (Analysis and Results)**

Munzim 1877 yilda Buxoroda tug‘ildi. U dastlabki ma’lumotni Buxoro madrasalarida oldi. Yoshligida otasidan yetim qolgan Abdulvohid o’sha davrning mashhur bibliofili Sharifjon Maxdum – Sadr Ziyo xonadonida tarbiya topdi. Bu xonadonda buxorolik ziyolilar tez-tez uchrashib, ilmiy bahsmunozaralar tashkil etar edilar. Ilmga chanqoq Munzim ana shu xonadonda Sadreddin Ayniy bilan uchrashdi va bu uchrashuv ularni bir umrga do’stlashtirdi. Abdulvohid Samarcandga borib Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abduqodir Shakuriy tashkil qilgan yangi usul maktablarida o‘qitish tajribasini o‘rganib kelgach, 1908 yilning oktyabrida S.Ayniy bilan hamkorlikda o‘z uyida yangi usuldagagi maktabni ochdi. S.Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” kitobida ta’kidlashicha, bu maktab 1908 yilning 23 oktyabrida Buxoroning “Darvozai Sallohxona” guzaridagi Mirzo Abdulvohidning hovlisida ochilib, 12 bola o‘qitiladi. Ularning bir qismi pullik, bir qismi esa tekinga o‘qitiladi. Xuddi shunday maktab Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li tomonidan qo‘shti guzarda ham ochilgan edi. Munzim o‘z maktabi uchun S.Ayniy bilan birga o‘quv qo‘llanmalarni ham yaratdilar. Ma’lum jaholatparastlarning ig‘volari va yangilikka qarshi chiqishlari natijasida 1909 yil 26 sentyabrdan Ostonaql qushbegi, Baqoxo‘ja qozikalon va Burhoniddin rais topshirig‘i bilan Abdulvohid Munzim maktabi yopib qo‘yiladi. Abdulvohid Burxonov 1908 yilda Mukammil Burxonov, Hamidxo‘ja Mehriy, Sadreddin Ayniy, Ahmadjon Abdusaidov va boshqalar bilan birga “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) nomida Buxoro jadidlarining ma’rifiy jamiyatini tuzdilar. Bu jamiyatda Usmon Xo‘ja, Muso Saidjonovlar faol qatnashdilar. Jamiyat a’zolarining soni 100dan oshib, uni moddiy jihatdan Muhiddin Mansurov va Sadr Ziyo qo‘llab-quvvatlab turdilar. Bu tashkilot buxorolik yoshlarni xorijga yuborib o‘qitish, yangi usul maktablari uchun darslik, qo‘llanmalar yaratish, xorijdagi o‘qishga yuborilgan bolalarga moddiy ko‘mak berish ishlari bilan shug‘ullandi. Shu jamiyat ko‘magida 1908 yilda Istanbulda 14 ta buxorolik va turkistonlik bola ta’lim oldi. Shu jamiyat ko‘magida Turkiyada Abdurauf Fitratning bir qator asarlari chop etildi.

Bu jamiyat a’zolari, jumladan, Munzim ham buxorolik ma’rifatparvar va ziyolilar o‘rtasida ilg‘or demokratik g‘oyalarni targ‘ib etib, xalqning siyosiy ongini uyg‘otishda muhim rol o‘ynadilar. Munzim Buxoroning birinchi matbuoti “Buxoroi sharif” gazetasi tashkil topishining tashabbuskorlaridan biridir. U “Munzim” taxallusi bilan fors-tojik tilida yozgan she’rlarini shu gazetada bosib chiqardi. Gazetaning 1912 yilda chop etilgan 53-sonida uning “Vatan”, 59-sonida “To ba kay” (“Qachongacha”), “Maktab” she’rlari chop etilgan. Bu she’rlarda jadidchilik harakati oldiga qo‘yilgan ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik, bolalarimizning ilm o‘rganishi, milliy o‘zligini anglashi kabi g‘oyalalar o‘z aksini topgan. Munzim xattotlik san’ati bilan ham shug‘ullangan va uni mukammal egallagan. S.Ayniyning maslahati bilan Ahmad Donishning asarlarini qo‘lyozma variantlarini chiroli xattotlik usulida yaratgan. Keyinroq esa o‘z uyida tipografiya tashkil etib, “Qur’oni Karim”ni chop etgan va bu nusxa “Qur’oni Abdulvohidiy” hamda “Qur’oni Munzim” nomlari bilan mashhur bo‘lgan.

Rossiyada 1917 yil fevral inqilobidan keyin va Buxoroda amir Olimxonning shu yili 7 apreldagi farmonidan so‘ng Buxoro jadidlari Abdulvohid Burxonov Munzim boshchiligidagi eski-qadimchilarga va Fayzulla Xo‘jayev hamda Abdurauf Fitrat boshchiligidagi yangi jadidlarga bo‘linadilar. Birinchi guruhning asosiy faoliyati ma’rifat bo‘lsa, ikkinchi guruh keng islohotlar tarafidori edilar. Bu guruhlar o‘rtasidagi ixtilof ancha kuchaygan edi.

Masalan, amirning 1917 yil 7 apreldagi farmonini “Yosh buxoroliklar” keng xalq ommasiga tushuntirish uchun miting, yig‘ilishlar va namoyishlar o‘tkazishni A.Fitrat boshchiligidagi guruh a’zolari yoqlab chiqadilar. Abdulvohid Burxonov boshchiligidagi guruh namoyishga qarshi chiqadi. Keyinchalik bu ikki guruhning birlashuvi natijasida “Yosh buxoroliklar” partiyasi tuzilib, Munzim unga rais qilib tayinlanadi. Buxoroda reaksiya va ta’qiblar kuchaygach, Munzim ham Toshkentga borib “Uchqun” va “Qutulish” gazetalariga hamkorlik qiladi. Uning qator she’rlari, jumladan, “Bayoni hol”, “Ey mazlum Sharq” kabi she’rlari shu gazetalarning sahifalarida chop etiladi.

Buxoro Xalq Respublikasi tashkil topgach, Munzim BXSR MIK raisining o‘ribbosari, Xalq maorifi vaziri, sog‘liqni saqlash noziri vazifalarida faoliyat ko‘rsatadi. Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi Buxoro Xalq Sovet Respublikasi kadrlarni chet elda o‘qitishga katta e’tibor beradilar. Bir guruh o‘quvchi va talabalarni Germaniya, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon va boshqa mamlaktlarga o‘qishga yuborishga harakat qiladilar. Bu ishlarni amalga oshirishda Xalq maorifi noziri sifatida Munzim ham katta hissa qo‘sadi. “Germaniyaga o‘quvchi va talabalarni yuborish ishi – deb yozadi tarix fanlari nomzodi, dosent, BXSRning tadqiqotchilaridan biri Kamol Rahmonov, - BXSRning Moskvadagi vakolatxonasi boshlig‘i Ato Xo‘janing faol ishtiroki hamda Germaniyadagi Vinsdarf shaharchasi musulmonlar machiti imomi, tatar millati vakili olimjon Idrisiy, hukumat rahbarlaridan Fayzulla Xo‘jayev, Qori Yo‘ldosh Po‘latov, Abdulvohid Burxonov, Abdurauf Fitrat tashabbuslari bilan amalga oshirildi.”

“Buxoro axbori” gazetasining 1922 yil 27 avgustdagagi 97-sonida “Germaniyaga talaba ketadur” maqolasida buxorolik 46 talabani Olimjon Idrisiy, Abdulvohid Burxonov va Kamenskiylardan iborat maxsus komissiya olib borishi haqida xabar berilgan. Buxorolik talabalarning Germaniyada ta’lim olishida Munzim bosh-qosh bo‘lib turgan. U o‘zi bilan ikki o‘g‘lini ham olib borib Germaniyada o‘qitgan. Fayzulla Xo‘jayev bu talabalar hayotidan xabar olish maqsadida Germaniyaga borganligi haqidagi ma’lumotlar ham mavjud. Germaniyada tahsil olib qaytgan talabalarning asosiy qismi O‘zbekistonga qaytgach, “nemis ayg‘oqchisi”, “Vatan xoini”, “imperializm malayi” kabi soxta ayblar bilan qatag‘on qilingan. Bir qismi esa Sibir, Magadan, Vorkutaga surgun qilingan, ko‘pchiligi GULAG lagerlarida halok bo‘lgan. Bulardan 15-16 tasi Turkiyaga muhojirlikka ketib, jon saqlab qolganlar. Abdulvohid Burxonov Germaniyadan qaytgach, Samarqandda nashriyot xodimi bo‘lib ishlaydi. Ilmiy va publisistik faoliyat bilan shug‘ullanadi. 1927 yildan boshlab Dushanbeda yashab, “Tojikistoni surx” gazetasida badiiy xodim sifatida faoliyat ko‘rsatadi. 1934 yil 5 martda Dushanbeda vafot etadi.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion)**

Abdulvohid Burxonov Munzim shoir, jurnalist, davlat arbobi sifatida Buxoro, Samarqand va Tojikistonda katta faoliyat ko‘rsatgan insonlardan biridir. Afsuski, bugungi kungacha O‘zbekiston va Tojikistonda uning faoliyati har tomonlama va chuqur o‘rganilmagan. Bugun tadqiqotchilar oldida turgan asosiy vazifa Munzimning hayoti, faoliyati va ijodini chuqur tadqiq etib, uning asarlarini topib nashr ettirishdan iboratdir.

**Adabiyotlar Ro‘yxati (References)**

1. Maqsud, B. (2021). Buxoro bozorlari. *panjakent-2021. treasury of*.
2. Beshimov, M. (2020). BERUNIY “QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLER” ASARINING AHAMIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 6(2).
3. Beshimov, M. (2021). ТАРИХ ЎҚИТИШ МЕТОДЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТУРКУМЛАНИШИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 6(6).
4. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
5. Бешимов, М. К. (2022). MUNZIM ZAMONDOSHI AYNIY XOTIRALARIDA: Beshimov Maqsud Komilovich, Buxoro tarixi kafedrasi o’qituvchisi, Buxoro Davlat Universiteti. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (6), 15-17.
6. Beshimov, M. (2022). MANG ‘ITLAR DAVRIDA BUXORODA MADANIY HAYOT (me’morchilik, adabiyot va san’at). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 20(20).
7. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 78-83.
8. Beshimov, M. (2021). Mang’itlar davrida Buxoroda madaniy hayot. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 7(7).
9. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
10. Rajabov, O. I. (2022). HISTORY OF FORTRESS OF MAKHMUD TOROBI. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 50-54.
11. Rajabov, O. (2021). CHOR BAKR TARIXIY ME’MORIY MAJMUASI XUSUSIDA. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 8(8).
12. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
13. Rajabov, O. (2020). Qizbibi va Hazrat Bibi manzilgohlari muqaddas qadamjosifatida. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 1(1).
14. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
15. ISKANDAROVICH, R. O. (2021). BUKHARA ISLAMIC SCHOLARS VIII-XII CENTURIES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(4), 42-48.
16. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
17. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.

18. T. F., & UMIDA, X. (2022). PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 26-31.
19. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
20. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
21. Sherzod O'ktam o'g, N. (2023). TARIXCHI OLIM PO 'LAT SOLIYEV ILMUY ME'ROSIDA TURKISTON TARIXIGA OID AYRIM MASALALAR. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(7), 1283-1290.
22. Nosirov, S. (2022). BUXORO AMIRLIGI MAORIF TIZIMIDA YANGI USUL-JADID MAKTABLARINING FAOLIYATI (S. AYNIY XOTIRALARI ASOSIDA). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 26(26).
23. Nosirov, S. (2022). Sadriddin Ayniy asarlari buxoro inqilobini tarixini o 'rganuvchi manba sifatida. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 26(26).
24. Nosirov, S. (2022). SADRIDDIN AYNIYNING 1917-1920-YILLARDAGI TARIXIY JARAYONLAR BORASIDAGI QARASHLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 26(26).
25. Nosirov, S. (2022). САДРИДДИН АЙНИЙ-АҲМАД ДОНИШ ҲАҚИДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 26(26).
26. Mubinov Muhammadali. Foreign trade relations of the Bukhara emirate.// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 1 Issue 8, November 2021. –P.287-290.
27. Мубинов М.А. Культурные аспекты жизни и специфические качества ремесла Бухарского эмирата и русско-европейское влияние на эмирят (в XIX-XX веках). *International Journal of Intellectual and Cultural Heritage* Volume: 2 Issue: 02 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314. –C.176-179.
28. MUBINOV M.A. Bukhara emirate at the center of trade and economic relations (based on the works of travelers). // *International Journal of Intellectual and Cultural Heritage* Volume: 2 Issue: 06 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
29. Komilovich, M. B., & O'g, N. S. O. K. (2023). Abdulvahid Munzim and Young Buharans. *Telematique*, 22(01), 1182-1185.
30. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
31. T. F., & UMIDA, X. (2022). PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 26-31.
32. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
33. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.

34. Bobojonova, B. (2022). IDIOMS AND THEIR IMPORTANCE. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(6), 573-576.
35. Бобоҷонова, Ф. Ҳ. (2021). БУХОРО МАДРАСАЛАРИ МАҶНАВИЯТ ДУРДОНАСИ. Scientific progress, 2(1), 362-366..
36. Bobojonova, F. Issues of construction, material security and organization of activities of madrasas in the Emirate of Bukhara. 2020. *B-213*.
37. Bobojonova, F. X. Bukhara madrassas are a masterpiece of spirituality. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601 2021. R-362-366.
38. Xayatovna, B. F. (2022). The Issues of Construction of the Bukharan Madrassas, Their Material and Organization of Their Activity. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(4), 1-11.
39. Бабаджанова, Ф. Ҳ. (2022). БУХОРОДАГИ МИР-АРАБ МАДРАСАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-1).
40. Umarov, B. B. O. (2022). SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(6), 46-49.
41. UMAROV, B. (2022). ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(2), 94-100.
42. Umarov B. БУХОРО ВОҲАСИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
43. BAXTISHOD, U., & ULUG'BEK, Q. Y. (2022). MS ANDREEV-THE GREAT EASTERN SCIENTIST. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(3), 120-123.
44. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ЖАНУБИЙ ТОЖИКИСТОН ЭТНИК ТАРИХИ. Scientific progress, 1(6), 1005-1009.
45. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ-ПОПУЛЯРИЗATOR МУЗЕЕВ И ИСТОРИИ ТАДЖИКСКОГО НАРОДА. Экономика и социум, (11-2 (90)), 495-497.
46. Ravshanovich, S. D. (2022). CURRENTLY, THE PLACE OF AFGHANISTAN IN THE COMMUNICATION OF CENTRAL AND SOUTH ASIA. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(6), 55-59.
47. SHAROPOV, D. (2022). ПРАВИТЕЛЬ МАНГЫТОВ ЭМИР ХАЙДАР. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(2), 101-104.
48. Sharopov, D. R. O. G. L. (2021). ARAB XALIFALIGIDAN MUSTAQIL TOHIRIYLAR DAVLATINING AJRALIB CHIQISHI. Scientific progress, 2(7), 817-820.
49. Qudratov Shuxrat, [05.05.2023 10:23]
50. Qudratov S. Qudratov Shuxrat БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ЕВРОПА ВА АМЕРИКА МАМЛАКАТЛАРИ БИЛАН САВДО АЛОҚАЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
51. Qudratov Shuxrat, [05.05.2023 10:23]
52. Qudratov S. БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ФАРБ МАМЛАКАТЛАРИ БИЛАН САВДО АЛОҚАЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.

53. Qudratov Shuxrat, [05.05.2023 10:24]
54. Qudratov S. XIX АСР ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚОРАКЎЛ САВДОСИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
55. Qudratov Shuxrat, [05.05.2023 10:24]
56. Qudratov S. БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ШАРҚ ХАЛҚЛАРИ БИЛАН САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
57. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
58. T. F., & UMIDA, X. (2022). PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 26-31.
59. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
60. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.